

**VOYAGA YETMAGAN DEVIANT XULQLI BOLALAR IJTIMOIY  
REABILITATSIYASI**

**Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna**

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti  
Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Salimova Jasmina Aljonovna**

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti  
Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada voyaga yetmagan bolalar to'g'ri oilalarda yashab, deviant xulq-atvor, uning ko'rinishlari, Olimlar qarashlari va bu borada olib borilayotgan izlanishlar,reabilitatsiya jarayonlari haqida ma'lumotlar berilgan.Oilada shaxslararo munosabatlar,oilada yuzaga keladigan nizolar va ularning farzandlar tarbiyasiga, xulq-atvori va ruhiyatiga ta'siri, reabilitatsiya jarayonlariga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, xulq-atvor, tarbiya, bola, ota-onalar, g'amxo'rlik, nizolar, huquqbazarliklar, oilaviytarbiya, himoya, o'smirlar, oilaviymuammolar, oilaviymunosabatlar, reabilitatsiya

Har bir inson hayotida komil shaxsni shakllantirishda huquqiy tarbiya alohida o'rinn tutadi.Ta'llimning ko'p jihatlarini hisobga olsak ham, huquqiy ta'llim va huquqiy savodxonlik birinchi qadam bo'ladi. Bolalar va o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishiga yo'l qo'ymaslik zamonaviy jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu masala bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar tanish ko'rinishga aylanib,mamlakatni larzaga solmoqda. Xulq-atvori og'ir bola ulg`aygan sari og'ir jinoyatlarga moyil bo'lishini hisobga olsak, bu juda o'tkir muammo ekanini tan olishimiz kerak.

O'smirlarning jinoyat sodir etish sabablarini hisobga oladigan bo'lsak, ayrim ota-onalarning farzandlari taqdiri haqida qayg'urmasligi, ularni o'z holiga tashlab qo'yishi, maktabdan tashqari, bo'sh vaqtida nima bilan shug'ullanayotganini nazorat qilmasliklari sabab bo'lmoqda. Bizning nazarimizda har bir ota-ona farzandining intizomi , ta'llim-tarbiyasigs ko'proq e'tibor qaratib, bo'sh vaqtida nimalar bilan mashg'ul bo'lishini qat'iy nazorat qilsa, o'smirlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikni kamaytirishga katta hissa qo'shgan bo'ladi.

Bola tarbiyasida, ijtimoiy me'yorlar talabi asosida tarbiyalashning eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. ``Yoshlarimiz tarbiyasi qanchalik mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi``. Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlab, barkamol komil inson bo'lib shakllanishida nikohli sog'lom oila muhitining o'rni benihoya katta va salohiyati cheksizdir.Har bir farzand inson bo'lib,shxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga bevosita bog'liqdir. Insondagi xulq-

atvor, axloq-odobning dastlabki normalari oilada shakllanib, mактаб, mahallada, jamoatchilik o'rtasida ta'lіm-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi. Insoniy fazilatlar shakllanib takomillashib komil insoniylik darajasigacha ko'tarilib boradi, aksincha oilada noto'g'ri tarbiya shakllansa buzg'unchi, tajavuskor shaxsga aylanib qoladi.

Ma'lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o'ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o'rіn tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir etadi. Deviant va tajovuskor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari o'rganilganda, ota-onaning kayfiyatigako'ra, ko'p hollarda qattiqqo'llik, jazolash, ota-onalik mehrining "tanqis"ligini namoyon qilish kabilalar qayt qilingan. Deviant xulqli va ijobiy xulqli o'quvchilarning oila sharoiti o'rganilganda, deviantlilarining nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Xulq og'ishini kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatishicha, ikki o'zaro bog'liq omil orasidagi;

-funksional yoki xulq-atvorga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar.

-bevosita ta'sir qiluvchi, o'zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirishga tizimli jarayonlarga ajratish mumkin.

Bola dunyoga, jamiyatga, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalariga munosabatining birinchi na'munasi ota-onalardir. "Bola huquqlari" to'g'risidagi konvensiyada "shaxsning to'liq va uyg'un rivojlanishi uchun bola oilaviy muhitda, baxt, muhabbat va farovon hayot tarzida yashashi zarur hisoblanadi". Jamiyatimiz taraqqiyoti munosabati bilan oila, uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda. Xususan noto'g'ri shakllangan oilalarda ya'ni deviant xulq-atvorga ega bo'lgan oilalarda xususan voyaga yetmagan bolalarning katta bo'lishi, tarbiyaning buzulishiga, xulq-atvorning og'irlashishiga, deviantlikning ularda ham shakllanishiga sabab bo'ladi. Noto'g'ri oilada xususan bolalarning psixikasi buzuladi. Buni psixologlar oilaviy nizolarda bolalarning xulq-atvorining asosiy modellarini aniqladilar. Ular bolalar ongsiz ravishda yoki ongli ravishda barcha qo'pol qirralarini tekislashga yoki ota-onalarni yarashtirishga harakat qiladilar, bunda ota-onaning bir-biriga munosabatida bolaning psixikasida o'zgacha fikrlar, g'oyalari, qayg'urish kabilar paydo bo'ladi.

Agar oilada ko'pincha janjal va nizolar bo'lib tursa va bu xatti-harakatlar bolalar ko'z oldida sodir bo'lsa, kelajakda u shaxsiy hayotida doimiy muvaffaqiyatsizliklarga va ota-onalikning noto'g'ri qiyofasini shakllantirilishiga olib keladi. Bola nizoli vaziyatlarda ba'zan o'zini-o'ziga jalb qiladi. Bunda bola oilaviy nizolarda neytral pozitsiyani egallaydi, ularda qatnashmaslikka harakat qiladi. U bu nizolarni hal qila olmaslikdan juda xavotirga tushishi mumkin. Tashqi tomondan xech qanday histuyg'ularni namoyon qilmasa ham, oilasidan tobora uzoqlashib boradi. Oilasida bo'lishni ular bilan gaplashishni xohlamay qoladi, yolg'izlikka berilib, hech kimni ichki dunyosiga kirishiga yo'l qo'ymasligi mumkin. Bunday bola har qanday jamoada maslashishi qiyin bo'ladi.

Ular tez-tezdepressiyaga tushadi. Doimiy ishonchsizlik va qo'rquv kuzatiladi, o'zi past baholaydigan shaxs bo'lib qoladi. O'smirlik davrida bu bolalar his-tuyg'ularga berilib ketishida va ko'pincha taqiqlangan narsalarda taskin topadilar- chekish, ichish, giyohvand moddalar, uydan chiqish va boshqalar uchraydi.

Chezare Lombrozonning ``Tug'ma individual omillar- jinoiy xulqning asosiy sabablaridir. Tug'ma jinoyatchilarni boshqa shaxslardan ularning tashqi belgilariga qarab osongina farqlash mumkin. Uning burni yalpoq, soqoli siyrak, peshonasi tor, jag' suyaklari katta, yanoq suyaklari bo'rtib chiqqan, peshonasi qosh usti suyaklari do'ng, qulq solinchoqlari osilgan vaa hokazo bo'ladi. Bunday belgilar yovvoyi odamlar va maymunlarda hamda jinoyatchilarda bo'ladi`` deb tariflaydi. Lombrozo bu orqali ko'proq deviantlikni tug'ma ekanligini va deviantlikdagi ko'rinishlarni yovvoyi hayvonlarning xatti-harakatiga qiyoslaydi. Deviant shaxsni tariflash tashqi tomondan aniqlashni ko'rsatadi.

Lombrozo nazariyasida jinoyatchilik klassifikatsiyasi:

- 1.Tug'ma jinoyatchilik
- 2.Ruhiy kasal jinoyatchilik
- 3.E'tiqodiga ko'ra jinoyatchilik(Siyosiy jinoyatchilik ham shular jumlasidan)
- 4.Tasodifiy jinoyatchilik

Tug'ma jinoyatchilik- nasldan-naslga o'tuvchi hisoblanadi. Bu ota-onada yoki qaysidir avlodidan ham o'tishi mumkin. Lombrozo ko'proq deviantlikni tug'ma deb hisoblaydi.

Ruhiy jinoyatchilik- sog'lig'ida turli xil o'zgarishlar sababli, kasallik oqibatida, psixikaning buzilishi oqibatida ham jinoyatchilik yuz berishi mumkin. Bunda shaxs o'zining jinoyatchilik qilganini ham ko'pincha anglamaydi.

E'tiqodiga ko'ra jinoyatchilik- turli din vakillari orasida jinoyatchilik, dini ularni targ'ib e'tish, bir-biridan ustun qo'yish, targ'ib etish orqali sodir bo'lishi mumkin.

Tasodifiy jinoyatchilik- biron-bir kutilmagan vaziyatda, tasodifiy jinoyatchilik, urush-janjal, huquqbazarlikka duch kelgan vaqtida inson o'zi bilmagan holda jinoyatchilikka aralashib qolishi mumkin.

Robert Mertonning anomiya nazariyasida:

``Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir`` deb tariflaydi. Deviant shaxs jamiyatdagi qonun-qoidalar, qadriyatlarga mos kelmaydigan turli xil huquqbazarliklar, jinoyatchiliklar, ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bu jamiyat uchun juda katta muammo hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatchilikka qo'l urishi jamiyat uchun katta fojea hisoblanadi. Voyaga yetmganlar orasida jinoyatchilar, ichlilikbozlar, giyohvandlar, hullas deviant xulq atvorga ega shaxslar, reabilitatsiya markazlariga joylashtiriladi. U yerda psixik, tibbiy, ijtimoiy yordam chora tadbirlari o'tkaziladi. Ichkilikbozlar bilan ko'proq tibbiy realibilitatsiya o'tkazilib sog'lig'i tiklanadi, keyin psikasi bilan shug'ullaniladi. Ijtimoiy reabilitatsiya asosan jamiyatga moslasha olmay

qolgan voyaga yetmagan bolalar ularning ota-onasi bilan olib boriladi. Bolani terzoq ijtimoiylashtirishning turli usullaridan foydalilanadi. Reabilitatsiya markazlari yurtimizda keng tarqalgan va jamoatni ko'plab vaziyatlardan chiqarishga harakat qiladi.

“ Reabilitatsiya markazida nogiron oilalar farzandlarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash” bu asosan 1990-yillardagi islohatlar jamiyatning ijtimoiy tuzulishida tub o`zgarishlarga olib keldi. Bu rus oilalarining turmush darajasida jiddiy farqlarga olib keldi, ijtimoiy jihatdan noqulay toifaga kiruvchi oilalar sonining ko'payishiga olib keldi va oilaning ta'lim salohiyatining pasayishiga olib keldi. Muqarrar ravishda ota-onada qaramog`isiz qolgan bolalar, yetimlar sonining ko'payishi bilan bog`liq bo`lgan ota-onadan mahrum bo`lish 20 asr oxiridagi maxsus ijtimoiy hodisa, ya`ni ijtimoiy yetimlik yoki tirik ota-onalar bilan yetimlik sabab bo`ldi. Bu bolalarning ota-onada qaramog`isiz, doimiy yashash joyisiz, haqiqiy do`stlarsiz, jamiyat yordamisiz, hayot istiqbolidan mahrum bo`lishi kabi salbiy jarayonlardan dalolat beradi va bolada turli xil deviantlikka moyil xususiyatlar shakllana boshlaydi. Ular jamiyat uchun zarar keltiradi, turli xil g`arazli ishlarni qila boshlaydi. Shu sababli hozirgi Rossiyada davlat siyosati qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar va voyaga yetmagan bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam tizimini shakllantirish va rivojlanishiga qaratilgan. Shu munosabat bilan yangi turdag'i ixtisoslashtirilgan ijtimoiy-pedagogik muassasalar - voyaga yetmaganlarni ijtimoiy reabilitatsiya markazlarida kam ta'minlangan oilalar farzandlarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini nazriy va amaliy jihatdan ishlab chiqish zarurati paydo bo`ldi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar bilan ishslashda “qiyin” bolalikning halokatli omillari orasida e'tiborsizlik, uyqusizlik, shaxsiyatsizlik ustunlik qiladi. Bu bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng yomoni, oiladagi kattalarning hayoti; bolalarga qanchalik yomon ta'sir qiladi. Jaholat, shafqatsizlik, hurmatsizlik, madaniyatsizlik, ichkilikbozlik hukm surayotgan joyda oddiy inson bo`lib yetishish qiyin. Bola ongi atrofdagi voqeа hodisalarga juda etiborli bo`lib ularning barchasini xis qilib tasavvur qiladi va fikrlaydi. Kattalar hayotining qiyinchiliklari, bolalikni bosib oladi, uni yo`q qiladi, uy va oila farovonlik va quvonch manbai bo`lishni to`xtatadigan vaqt keladi. Bolaning xulqi ham shunga qarab o`zgaradi. Bunday oilalardan chiqqan bolalar va o'smirlar mакtabga “sig'ilmaydi” va bolalar jamoasining ijtimoiy hayoti, o`z kuchlari va qobiliyatlariga ishonchni yo`qotadi, balog`at yoshiga muvaffaqiyatli kirish uchun asos bo`lgan me`yor va qoidalarni qat`iy o`zlashtirib xulqdan og`ish holatlari kuzatiladi. Voyaga yetmaganlar vaziyatning rahm-shavqatiga noto`g`ri tushunish, kattalar dunyosiga ishonchsizlik tufayli o`rnatalgan hayot me`yorlarini buzadilar va ko`pincha ko`chada, o`zlariga xos bo`lgan jamiyatda o`sib-ulg`ayishning boshqa yo`llarini izlaydilar.

Voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o`quv-tarbiya muassasalariga joylashtirishda oiladagi ijtimoiy muhitning yomonligi, ota-onada o`rnini bosuvchi shaxslarning farzand tarbiyasiga be`etibor bo`lishi sabab bo`layapti.

Voyaga yetmaganlarga o`z hayot yo`lini va kasb-hunar tanlashida ularning qobiliyati, qiziqishi, moyilligi hamda sog`lig`ining holatiga muvofiq psixologik yordam ko`rsatiladi. Bu asaosan reabilitatsiya markazlarida amalga oshiriladi.

Vaholanki, BMTning voyaga yetmaganlar orasida jinoyatning oldini olish uchun boshqaruv prinsiplarining 12-bandida oila bolalarni jamiyatdagi hayotga tayyorlash uchun ma`sul bo`lgan asosiy birlik bo`lgani uchun, hukumat va jamoat institutlari oilaning, butunligini saqlashga harakat qilishlari kerakligi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam berishga qaratilgan.

Rivojlanish muammolarini bartaraf etish va muammoli vaziyatdan chiqish yo`lini o`smirning o`zi tomonidan topish, mantiqiy fikrlash ongini shakllantirish lozim. O`smirning hayotini yaxshi tomonga shakllantirish uni reabilitatsiya markazlarida turli xizmatlar ko`rsatib hayotini yaxshilash zarur.

Yoshlarda deviant xulq va tarbiya buzulishini oldini olish vositalaridan asosiy o`rinlarda turuvchi oilaviy tarbuya muhitiga e`tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko`proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqeа-hodisalari bilan suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktika sifatida farzandlarga diniy tarbiya berish, e`tiqodini mustahkam qilish, ularda har qanday xulq og`ishi ko`rinishi diniy tarafdan ham, dunyoviy tarafdan ham ijobjiy xal qilish uchun zarurdir.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish joizki o`smir, voyaga yetmagan bolalar bular uchun oila, undagi muhit eng muhimi sanaladi. Uning rivojlanishi, kasb egallashi, hayotda o`zining yo`lini topishi, atrof bilan moslashishi uchun oila juda muhim sanaladi. Bolaga oiladagi tarbiya uning birinchi qadami bo`ladi. Bu qadamdagi izlar unga keljakda juda foyda keltiradi. Boshlang`ich poydevor, ko`nikma hisoblanadi. Voyaga yetmagan bolalarda deviantlik ham oilada yaxshi muhit bo`lmasligi, urush, ichkilikbozlik natijalarida va boshqa turli xil vaziyatlarda vujudga keladi. Ularni tuzatish, to`g`ri yo`lga boshqarish uchun yurtimizda reabilitatsiya markazlari faoliyat yuritmoqva samara bermoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to`plami.
- 2.Chezare Lombrozo asari.
- 3.G`oziyeva E.G ``Psixologiya``.T.2008 yil
- 4.Abdurasulova.Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari.